

2017-yil 2-may

Korjikov Yevgeniy Aleksandrovich



Korjikov Yevgeniy Aleksandrovich

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisining ishlab chiqarish, mahalliyashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va importni maqbullashtirish bo'yicha birinchi o'rinbosari

Qabul kunlari: juma, 10.00 - 12.00

Telefon raqami: [+998781407406](tel:+998781407406)

Elektron pochta manzili: info@uks.uz

Tarjimai holi

Tug'ilgan yili va joyi: 1968-yil, Krasnoyarsk shahri

Ma'lumoti: oliy, Tomsk politexnika instituti (1994).

Mehnat faoliyati

| | |
|-------------------|---|
| 2023-y. - h.v. | «O'zkimyosanoat» aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisining birinchi o'rinbosari |
| 2020-y. - 2023-y. | "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining o'rinbosari |
| 2019-y. - 2020-y. | "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining birinchi o'rinbosari |
| 2017-2019-yy. | "Navoiyazot" AJ boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari - Ammiak va karbamid, polivinilxlorid, azot kislotasi ishlab chiqarishi qurilishi bo'yicha direktori |
| 2016-2017-yy. | "Navoiyazot" AJ ishlab chiqarish bo'yicha direktori v.b., ishlab chiqarish, investitsiyalar va ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish bo'yicha direktor o'rinbosari, ammiak va karbamid, polivinilxlorid, azot kislotasi ishlab chiqarishi qurilishi bo'yicha direktori |
| 2015-2016-yy. | "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyati muvofiqlashtirish va mahalliyashtirish bo'limi boshlig'i |
| 2011-2015-yy. | "Navoiyazot" AJ investitsiyalar bo'yicha boshqarma, keyinchalik departament boshlig'i |
| 2009-2011-yy. | "Navoiyazot" AJ texnika bo'limi boshlig'i v.b., «Ammiak va karbamid majmuasi qurilishi» loyahasini tatbiq etish bo'yicha byuro boshlig'i, kaustik soda, xlor va xlor mahsulotlari sexi boshlig'i |
| 2000-2009-yy. | "Navoiyazot" AJ III navbatdagi ammiak ishlab chiqarishning boshlig'i |
| 1994-2000-yy. | "Navoiyazot" ishlab chiqarish birlashmasi 60-tsex boshlig'i v.b, sex boshlig'i, 1-sex smena boshlig'i, 4-sex usta-texnolog, boshliq o'rinbosari |
| 1986-1994 yy. | "Navoiyazot" ishlab chiqarish birlashmasi ta'mirlash-mexanika sexi tokari, 2-sex apparatchi shogirdi, konversiya apparatchisi, smena ustasi |

Vazifalari

- ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, yangilarini barpo etishga qaratilgan tarmoq korxonalarining barqaror va mutanosib rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- kimyo korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxi va ishlab chiqarish xarajatlar darajasiga ta'sir qiluvchi omillarni chuqur tahlil etish, zamonaviy energiya va resurslarni tejovchi texnologiyalar va uskunalarni hamda eng yangi elektron-axborot boshqarish tizimlarni jalb etish hisobiga mahsulot tannarxini va ishlab chiqarish xarajatlarini tubdan qisqartirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- tarmoq korxonalarining xavfsiz faoliyatini, ularda yuqori qo'shimcha qiymati va talabga ega sifatli kimyo mahsulotlarni ishlab chiqarilishini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, mahalliy madaniy va xom ashyo resurslarni chuqur qayta ishlash, tizimda zamonaviy yuqori texnologik jihoz-uskunalarni va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga mo'ljallangan yagona texnik siyosatni olib borish;
- sanoat xavfsizligi, mehnatni va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni va ishlab chiqarish dasturlarni bajarish;
- zamonaviy raqobatbardosh innovatsion texnologiyalar, mahsulotlarning yangi turlarini yaratishga, energiya va resurslar sarfini hamda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan ilmiy, shu jumladan, tarmoqlararo izlanishlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish.

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/company/management/deputy-production>